

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13300556>

KELASI ZAMON SHAKLLARI TADQIQI

Sobirova Muzayyana Ilhomjon qizi

QDPI 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Sobirovamuzayyana68@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kelasi zamon shakllarining pragmatik xususiyatlari hamda ularning nutq momentida qo‘llanilishi kabi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq momenti, kelasi zamon UGMsi, davomiylik, doimiylik, yondosh ma’no, hamroh ma’no.

Fe’lning zamoni fe’ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Fe’lning zamonini belgilashda *nutq momenti* asosga olinadi, fe’ldan anglashilgan harakatning nutq momenti bilan duch kelishi – *hozirgi zamon*, bu momentdan avval bo‘lganligi – *o’tgan zamon*. Bu momentdan keyin bo‘lishi – *kelasi zamon*, lekin bu nutq momenti so‘zlovchi tomonidan belgilanadigan subyektiv hodisa emas, balki so‘zlovchi uchun ham, nutq harakatiga shaxs uchun ham obyektiv real bo‘lgan hodisadir¹.

Kelasi zamon ma’nosi quyidagi shakllar yordamida yuzaga chiqadi.

a) [-a] [-y] *chizaman, chizasan, chizadi*

b) [-(a)r/mas] *yoqtirarman, yoqtirarsan, yoqtirar*


Ba’zi adabiyotlarda *[ekan], [emish]* to‘liqsiz fe’llari yordamida kelasi zamon ma’nosi ifodalanishi aytib o‘tilgan. Lekin yuqorida zikr etilgan darslikda *[ekan]*,

¹ А.Р.Фуломов – Т.1954 й. -Б. 29.

[emish] to‘liqsiz fe’llari emas yetakchi fe’l tarkibidagi [-ar] shakli zamon ma’nosini ko‘rsatishi isbotlangan. [ekan], [emish] to‘liqsiz fe’llari fe’ldan boshqa so‘zlar bilan kelganda zamon va modal ma’no ifodalaydi. Yetakchi fe’l tarkibida kelganda faqat modal ma’noni ko‘rsatadi. M.: *suvchi ekan, o‘qigan emish, kelar ekan*.

Birinchi misolda zamon ma’nosini ham eshitilganlik ma’nosini beruvchi modal ma’no ifodalangan. Qolgan ikki misolda, [-gan], [-ar] shakllari orqali zamon ma’nosini [emish], [ekan] to‘liqsiz fe’llari orqali modal ma’no ifodalangan.

Shunday qilib, kelasi zamon UGMsi [-a], [-y], [-ar], [-mas] shakllari orqali xususiylashadi, uni chizmada quyidagicha ifodalash mumkin.



Hozirgi-kelasi zamon shakllari “hozirgi” yoki “kelasi” UGM parchalari uchun majhul munosabat ifodalaydi. Chunki bu shakllar:

- a) kelasi zamonni ifodalaydi;
- b) hozirgi zamonni ifodalaydi;
- v) o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon betaraf bo‘ladi.

Tilshunoslikda hozirgi–kelasi zamon ifodalovchi “ikkita yagona va ikkita qo‘shma shakl bor. Yasama shakllar -(a)y, -(a)r li ravishdoshdan qo‘shma shakllar mazkur ravishdoshdan *ekan*, *emish* yordamida hosil bo‘ladi”¹.

-a/y + shaxs–son qo‘shimchalari birikuvidan tashkil topgan shakl kategoriyasi mohiyatidan ko‘proq ulush oladi:

a) umum zamonni ifodalaydi; b) kelasi zamonni ifodalaydi. Bu ma’nolar shaklda yuzaga chiqqan kategorial ma’nolardir. Harakatning davomiyligi UGM dagi yondosh ma’no quyidagi gaplardagi zamon shakllarida to‘liq yuzaga chiqadi:²
O‘zbek qizlari sevgisini aytmaydi, bir umr pinhon tutadi.

¹ Зикриллаев Ф.Н. Ўзбек тили морфологияси./Филология мутахасисликлари учун қўлланма/. Бухоро, 1994. -Б.41

² Мусулманова Н. “Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно”. Фил.фан.ном. дис... Қарши, 2007 -Б.69-82

Aktuallashtiruvchi vositalar ta'siri natijasida «doimiylik» yondosh ma'nosи “davomiylik” kasb etib, kategorial ma'noda muayyanlashish vujudga keladi va “harakatning bajarilishi bevosita nutq momentiga, hozirga oid bo'lishi mumkin”¹.

1. *Yigit nihoyatda isib ketgan, peshonasi, yuzlaridan tinmay ter quyadi.*
(S.Ahmad)

2. *O'sha kuni bo'lib o'tgan shov-shuv hali ham qulog'im tagida shang'illaydi, hali ham miyamni gangityapti.* (B.Kerboboev)

1-misoldagi oldingi gap, 2-misoldagi *hali ham* aktuallashtiruvchi vositasi ta'sirida “hozirgi zamon” ma'nosи uqlidi. Agar gaplar bu vositalardan xalos qilinsa. Yo doimiy zamon ma'nosи ifodalanib, “davomiylik” yondosh ma'nosи o'rnida “doimiylik” ifodalanadi, yo kelasi zamon kategorial ma'nosи “bosqlanmaganlik” yondosh ma'nosи uqlidi. Diqqat qiling:

1. *Nihoyatda isib ketsa, peshonasi, yuzlaridan ter oqardi.* (doimiy umumiy zamon).

2. *Shov – shuv kuchaysa, quloglari shang'illaydi*².

Kelasi zamon ma'nosida qo'llashga esa mazkur fe'llarning lug'aviy ma'nosи monelik qiladi. Demak, kelasi zamon kategorial ma'nosи voqelanishi uchun birikayotgan fe'lning-qurshovning ahamiyati muhimdir. “Hozirgi zamon” kategorial ma'nosи “davomiylik” yondosh ma'nosи bilan dialektik bog'liq bo'lganligi tufayli bunday holat yuz beradi. Aniq hozirgi zamon ma'nosи mazkur shakl mansub kategoriya xos ma'no bo'lsada, bu ma'noni ifodalash *a/y+shaxs-son* qo'shilgan shakli uchun xoslangan ma'no emas. Xos bo'limgan kategorial ma'noning kuchayishi, xos kategorial ma'noning susayishiga olib kelgan³.

Demak, ma'lum bo'ladiki, “*a/y+shaxs-son*” tuzilishi shakl uchun “umumzamon” va “kelasi zamon” kategorial ma'nolar bo'lib, unga ish-harakatning

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Морфология. Мах.мұх. Абдурахмонов Ф.А. ва бошқалар. -Т.: Фан,1972. -Б.501.

² Мусулманова Н. “Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно” фил.фан.ном. дис... Қарши, 2007, -Б.82-84.

³ Мусулманова Н. “Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно” фил.фан.ном. дис... Қарши, 2007. -Б. 89

aniqligi, irrealligi, tugallanmaganlik yondosh ma'nolari (modal ma'nolar) yo'ldosh bo'ladi. "Hozirgi zamon" esa shakl uchun xos bo'lмаган kategorial ma'no bo'lib, "davomiylik" (tarz-tus) hamroh ma'no sifatida yuzaga chiqadi. Hamroh ma'no boshqa shakllarda bo'lgani kabi bunda ham bog'liq qurshov asosida namoyon bo'ladi¹.

(a)r/mas+shaxs-son ko'rsatkichida zamon UGMsining "hozirgi-kelasi zamon" kategorial ma'nosi "gumon" yondosh ma'nosi (modallik) mushtarak holda namoyon bo'ladi.

1. *Qayerdan bilasan, balki hozir ham yuqoridan qararman.* (A.Qahhor) (Hozirgi kelasi zamon+gumon).

2. *Shu atrofda yurgandir, kelib qolar.* (S.Anorboyev) (kelasi zamon – gumon)

"Hozirgi–kelasi zamon" yoki "kelasi zamon" kategorial ma'nolarini farqlovchi omil ham qurshov bilan – gap tarkibidagi aktuallashtiruvchi vositalar, shaklni biriktiruvchi fe'l bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зикриллаев Ф.Н. Ўзбек тили морфологияси./Филология мутахасисликлари учун қўлланма/. Бухоро, 1994.
2. Мусулманова Н. "Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно". Фил.фан.ном. дис... Қарши, 2007.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Морфология. Мах.муҳ. Абдураҳмонов F.A. ва бошқалар. -Т.: Фан,1972.

¹ Мусулманова Н. "Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно" фил.фан.ном. дис... Қарши, 2007. -Б.82-84